



TALABALARNING BUYURTMACHILAR BILAN HAMKORLIGI KUCHAYMOQDA: OLIY MA'LUMOTLI YOSH MUTAXASSISNING KEYINGI TAQDIRI HAL ETILADIMI?

Adhambek Rahmatov

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18438369>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 28-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 31-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

Ushbu qarorga kirishdan avval, buyurtmachi o'zi kimligini bilib olishimiz zarur. Yuqorida keltirilgan qarorda buyurtmachiga quyidagicha ta'rif berilgan.

ABSTRACT

Samarqandlik Aziza "Toshkent davlat tibbiyot" universitetining 3-kursida tahsil olmoqda. Oilada 5 ta farzand bo'lib, otasi chorvachilik bilan shug'ullanadi. Har yili kontrakt pulini to'lash uchun bitta sigirni sotishlariga to'g'ri keladi. O'tgan haftada, bir yirik xususiy klinikadan xat keldi. Unda Azizaning qolgan 2 yillik kontrakt puli klinika tomonidan to'lanishi evaziga esa Aziza universitetni bitirganidan keyin 3 yil mobaynida klinikada ishlab berishi kerakligi yozilgan edi. Aziza ota-onasi bilan maslahatlashib, bu taklifni qabul qildi. Chunki u ham o'qib, bir vaqtning o'zida ishlashi oilasi uchun birmuncha yengillik bo'ladi. Ikkinchidan, universitetni bitirgandan keyin, ish izlash muammosi yechiladi.

Samarqandlik Aziza "Toshkent davlat tibbiyot" universitetining 3-kursida tahsil olmoqda. Oilada 5 ta farzand bo'lib, otasi chorvachilik bilan shug'ullanadi. Har yili kontrakt pulini to'lash uchun bitta sigirni sotishlariga to'g'ri keladi. O'tgan haftada, bir yirik xususiy klinikadan xat keldi. Unda Azizaning qolgan 2 yillik kontrakt puli klinika tomonidan to'lanishi evaziga esa Aziza universitetni bitirganidan keyin 3 yil mobaynida klinikada ishlab berishi kerakligi yozilgan edi. Aziza ota-onasi bilan maslahatlashib, bu taklifni qabul qildi. Chunki u ham o'qib, bir vaqtning o'zida ishlashi oilasi uchun birmuncha yengillik bo'ladi. Ikkinchidan, universitetni bitirgandan keyin, ish izlash muammosi yechiladi.

2025-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlari bituruvchilarini ish bilan ta'minlashda buyurtmachilar ishtirokini yanada kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 8-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlarini tamomlayotgan talabalarni, keyinchalik ishlab berish sharti bilan ish bilan ta'minlash maqsad qilib belgilangan. Shu yerda bir savol yuzaga keladi: bu qaror talabalar uchun imkoniyatmi yoki tuzoq?

Ushbu qarorga kirishdan avval, buyurtmachi o'zi kimligini bilib olishimiz zarur. Yuqorida keltirilgan qarorda buyurtmachiga quyidagicha ta'rif berilgan, ya'ni buyurtmachi - ishchilar soni 50 nafardan ortiq bo'lgan yoki qiymati kamida 1 million AQSH dollari bo'lgan investitsiya loyihalariga ega vazirlik va idoralar hamda tashkilotlar hisoblanadi. Ushbu qarorda har kim ham buyurtmachi sifatida bu dasturga qo'shila olmasligi ko'rsatilgan. Qonunda 2 xil mezon

belgilangan: yoki tashkilotda 50 nafar xodim ishlashi kerak, yoki uning qiymati 1 milliard AQSH dollaridan kam bo'lmagan investitsiya loyihasiga ega bo'lishi kerak.

Ushbu qarorga muvofiq, mexanizm quyidagicha ishlaydi. Har yili yangi o'quv yili boshlangunga qadar oliy ta'lim tashkiloti ish beruvchilarning buyurtmalarini qabul qilib oladi. Shu bilan bir qatorda, qo'shimcha ma'lumotlarni (tashkilot nomi, lavozimi, ish tartibi, oylik maoshi, talabalarga qo'yiladigan talablar va boshqalar ko'rsatilgan holda) ham olishi kerak. Buyurtmachilar taklif bergandan keyin, tegishli yo'nalishda o'qiyotgan bakalavriat talabalariga asosiy fanlardan tashqari qo'shimcha tanlov modullarini joriy qilishni taklif qilishi ham mumkin. Ushbu taflifni buyurtmachi oliy ta'lim muassasasiga 1-avgustga qadar kiritishi mumkin ekan. Agar ish beruvchining talab va taflifiga muvofiq yangi o'quv modullari joriy etilsa, bu modullar bo'yicha alohida kredit ballari berilishi belgilangan. Ish beruvchi tomonidan taqdim etilgan barcha ma'lumotlarni, xususan, talabgorlarga qo'yilgan talablarni va tanlovda ishtirok etish tartiblarini oliy ta'lim tashkiloti 10-sentabrga qadar o'zining rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilishi keltirib o'tilgan. Shundan keyin, 20-sentabrga qadar, o'zlashtirish ko'rsatkichi (GPA) 3 va undan yuqori bo'lgan talabalar o'zlarining arizalarini topshirishlari mumkin bo'ladi. Talabgorlarni saralash bo'yicha oliy ta'lim tashkiloti xodimlari va buyurtmachilar vakillari komissiya tarkibiga kiritiladi va o'quv ishlari bo'yicha prorektor tanlov komissiyasiga raislik qiladi. 15-oktabrga qadar talabgorlarni suhbat asosida saralab olish ishlari amalga oshiriladi. Shundan so'ng, suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar, oliy ta'lim tashkiloti va ish beruvchi o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuziladi.

Talaba bilan shartnoma tuzilgandan keyin, uning o'quv jarayonlari oldingidan ko'ra ko'proq nazoratga olinadi va fanlarni o'zlashtirishini har semestr davomida monitoringi buyurtmachiga yetkazib turiladi. Talabaning nafaqat o'quv jarayonlari, balki bitiruv malakaviy ishi ham buyurtmachining taklifiga binoan belgilanadi. O'qishni muvaffaqiyatli bitirgan talaba buyurtmachi tomonidan shartnomada belgilangan tartibda ishga olinishi keltirib o'tilgan.

Ushbu qaror, haqiqatdan ham, talabalarining kelgusi hayotida muhim o'rin tutadi. Birinchidan, oilalar uchun katta moliyaviy yengillik bo'ladi. 2024/2025 o'quv yilida davlat universitetlari uchun kontrakt narxlari 7,4 million so'mdan 11,25 million so'mgacha bo'lgan, ba'zi xususiy universitetlarda esa 29 million so'mgacha yetadi va bu ko'plab oilalar uchun yillik daromadining katta qismini tashkil etadi¹. Ikkinchidan, talabalar kelajakda ishlaydigan ish joyi oldindan ma'lum bo'ladi. Diplomni olgandan keyin ish izlab yurishga hojat qolmaydi. 2024-yil 6-avgustda Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri quyidagi statistikani taqdim etgandi. Unga ko'ra, 2023/2024 o'quv yilini tugatgan 214-ming bitiruvchining 126-ming tasi hali biror ish topa olmagan. Bu degani, umumiy hisobda, barcha bitiruvchilarning 59%iga to'g'ri. Uchinchidan, eng muhim narsalardan bir bo'lgan amaliyot va nazariya birlashadi. Oliy ta'lim tashkilotida o'rganayotgan bilimlarini real hayotda ishlata oladi va bu ta'lim sifatini ham oshiradi.

Tanganing ikkinchi tarafi bo'lganidek, Vazirlar Mahkamasi qarorining ham ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, bir qancha salbiy va muammoli tomonlari ham mavjud. Xususan, yuqorida ta'kidlanganidek, buyurtmachilarga qo'yilgan talablar. E'tibor berib qarasa, bu loyihada faqat yirik biznes egalari qatnashishi mumkin, vaholanki, mamlakatimizdagi yuridik shaxslarning aksariyati o'rta va kichik biznes vakillari hisoblanadi. Eng ko'p ish o'rinlarini ham shu toifalar

¹ OTMLarda to'lov-kontrakt miqdorlari o'rtacha 15 foizga oshirildi

tomonidan yaratiladi. Biroq yuqoridagi holatda, asosan, yirik biznes egalari bu loyihada ishtirok etishini ko'rib o'tdik. Bu esa yirik kompaniyalarni kuchayishga, kichiklarini esa zaiflashishga olib keladi. Ikkinchidan, 19-20 yoshlik o'smir nimani xohlayotganini va nimaga intilayotganini hali aniq anglab yetmagan bo'ladi. Bunday holatda bir necha yilga ishlab berish majburiyatini olish – bu katta risk bo'lishi mumkin. Uchinchidan muammo – bu oliy ta'lim tashkilotlarining mustaqilligi masalasi. Qarorning 2-bob 7-bandida buyurtmachilarning taklifiga binoan bakalavriat ta'lim yo'nalishida asosiy fanlardan tashqari tanlov fani sifatida qo'shimcha fan modullari ham kiritilishi mumkinligi keltirib o'tilgan. Bu esa ta'lim muassasasining erkinligiga oz ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi, albatta. Ish beruvchi o'quv dasturiga o'z fanlarini kiritadi, bitiruv malakaviy ishi mavzusini belgilaydi va talabaning baholarini kuzatib boradi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga ham ta'sir qiladi.

Ushbu sohada jahon tajribasiga nazar solsak, Germaniyada 1980-yildan buyon "Duales Studium" deb ataladigan tizim ishlaydi, ya'ni dual ta'lim tizimi. Bu tizimda talaba haftaning 3 kunida ish beruvchi tashkilotda amaliy mashg'ulot o'tkazadi, qolgan 2 kunida universitetda nazariya darslarini o'qiydi. Bu tizimning qulayligi shundaki, talaba bir vaqtning o'zida ham ishlab, ham o'qiydi. Eng muhimi, ish beruvchi va talaba o'rtasida tuziladigan shartnoma majburiy kuchga ega emas va istalgan paytda bekor qilinishi mumkin. Shuningdek, Janubiy Koreya davlatini ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Samsung, LG, Hyundai kabi yirik kompaniyalar har yili yuzlab million dollarni oliy ta'lim tashkilotlariga sarflashadi. Bundan maqsad esa, davlatdagi ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashish va ilmi yoshlarni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Bunga misol sifatida Samsung kompaniyasi Seoul universitetida zamonaviy sun'iy intellekt laboratoriyasini qurish uchun 50 million dollar ajratganini keltirishimiz mumkin. AQSH tajribasiga nazar solsak, ko'plab universitetlarda "Cooperative education" (Co-op) dasturi mavjud. Ya'ni bu dasturda talaba 1 semestr universitetda o'qiydi, keyingi semestrda kompaniyada ishlaydi. Buning ham o'ziga xos afzalliklari mavjud. Talaba ishi uchun to'liq haq oladi va bu talabaga hech qanday majburiyat yuklamaydi. Shuningdek, talaba o'zi istagan kompaniya yoki tashkilotda ishlashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Vazirlar Mahkamasining ushbu qarori 12-yanvardan boshlab kuchga kirgan. Oliy ta'lim tashkilotlari bu yilning sentabrida birinchi e'lonlarni berishadi. Tizimning qanday ishlashini o'sha paytda ko'ramiz. Umuman olganda, bu moliyaviy tomonlama qiynalgan oilalar uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi, shuningdek, o'qishni bitirgandan keyin talabaning ish izlashiga ham hojat qolmaydi. Biroq, hali 19-20 yoshga kirgan talabalar hali hayot yo'lini aniq belgilab ulgurmasdan bir ishga yillar davomida bog'lanib qolishi bir qancha salbiy oqibatlar ham keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining buyurtmachilarga bog'lanib qolish xavfi ham mavjud. Chunki bu orqali oliy ta'lim muassasalari "kadr yetkazib beradigan fabrikaga" aylanib qolishlari mumkin. Xo'sh, bu qaror talabalar uchun yangi imkoniyatmi yoki muammo? Bu savolga javobni tizim ishga tushib, vaqt o'tgandan keyin bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.01.2026 yildagi 8-son